



Opportunities Created for Youth by Our President

Ikromjonova Dilshoda Ilhomjon qizi

Ajiniyoz Nukus State Pedagogical Institute 1st-year student, Special Pedagogy:
Speech Therapy (Logopedics) program

Annotation:

As a result of the wise policy pursued by our esteemed President, broad opportunities are being created for young people today. At the same time, improving the quality of education, creating conditions for acquiring modern knowledge and professions, and supporting the scientific and innovative activities of young people have become priority areas of state policy. Especially since 2017, in the large-scale reforms carried out under the leadership of the President of our country, the education of young people, their acquisition of professions, and finding their place in society has been defined as a priority task. Also, the opportunities created are assessed for increasing the intellectual potential of young people and their role in the development of the country.

Keywords: Our esteemed President, state youth policy, education system, higher education, youth employment, entrepreneurship, social activity, reforms, Presidential initiatives.

Prezidentimiz tomonidan biz yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar

Ikromjonova Dilshoda Ilhomjon qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika:
logopediya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya:





JOURNAL OF SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

Muhtaram prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat natijasida bugungi kunda yoshlarga keng ko'lamli yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallash uchun shart - sharoitlarni yaxshilash, yoshlarning ilmiy va innovatsion faoliyatini qo'llab - quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning ta'lim olishi, kasb egallashi va jamiyatda o'z o'rnini topishi ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Shuningdek, yaratilayotgan imkoniyatlar yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va mamlakat taraqqiyotidagi roliga baho berilgan.

Kalit so'zlar : Muhtaram Prezidentimiz, yoshlarga oid davlat siyosati, ta'lim tizimi, oliy ta'lim, yoshlar bandligi, tadbirkorlik, ijtimoiy faollik, islohotlar, Prezident tashabbuslari.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston yoshlari mamlakat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etilmoqda. 2017-2024-yillar davomida yoshlarga oid davlat siyosati tubdan takomillashtirildi. Oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi, davlat grantlari va stipendiyalar sonining ko'paytirilishi, chet tillarini o'rganish hamda zamonaviy kasblarga tayyorlashga qaratilgan dasturlar yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Undan tashqari 2018 - yilda “ 5 muhim tashabbus ” ilgari surilib, 2020 - yildan boshlab yoshlar tadbirkorligi va bandligini qo'llab - quvvatlashga qaratilgan dasturlar kengaytirildi, 2021 - yilda “Yoshlar daftari ” tizimi joriy etildi hamda 2022-2024-yillarda yoshlar uchun imtiyozli kreditlar uy - joy va IT sohasidagi loyiha amaliyotga tatbiq etildi. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida Prezidentimiz rahnamoligida yoshlarga oid ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarning bandligini ta'minlash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab - quvvatlash hamda ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan islohotlarning mazmun - mohiyati yoritilgan.





Asosiy qism

1. Ta'lim sohasida yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar

Yurtimizda yoshlar uchun oliy ta'limga kirish imkoniyatlari kengaytirilib, grant va stipendiyalar soni oshirilmoqda. Zamonaviy universitetlar va raqamli ta'lim tizimi esa yoshlarning sifatli bilim olib, raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishiga xizmat qilmoqda.

Oliy ta'lim tizimidagi grantlar va stipendiyalar

2015-yildan boshlab O'zbekiston oliy ta'lim tizimida talabalar uchun davlat grantlar soni oshirildi. 2018-yilda universitetlarda iqtidorli talabalar uchun qo'shimcha stipendiyalar joriy etildi. (President. uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Murojaatnomasi. (online) Available at: <https://president.uz>)

Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim talabalari uchun stipendiyalar miqdori, to'lov tartibi va qo'shimcha rag'batlantirishlarni belgilaydi. Unga ko'ra belgilangan stipendiyalar ro'yxati va miqdorlari aniq ko'rsatiladi, jumladan Prezident va nomli davlat stipendiyalari, aniq qaysi shartlarda berilishi ko'rsatilgan. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020, 31-yanvar) Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun stipendiyalarni belgilash tartibi to'g'risidagi 59-son qaror. Lex. uz. rasmiy huquqiy portal.

Ilmiy va akademik loyihalar, konferensiyalar

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar va ilmiy xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan ilmiy va akademik loyihalar yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. (Abdurahmonov S. (2020) Ilmiy tadqiqotlar va konferensiyalar metodikasi). Ilmiy konferensiyalar va seminarlar ishtirokchilarga o'z tadqiqotlarini taqdim etish, fikr almashinish va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish





imkonini beradi. (Karimov O. (2019) Akademik loyihalar va yosh tadqiqotchilar uchun qo'llanma).

Xorijiy ta'lim va akademik mobillik imkoniyatlari

Xorijiy ta'lim va akademik mobillik dasturlari talabalar va ilmiy xodimlarga chet el universitetlarida ta'lim olish va ilmiy tadqiqotlar olib borish imkonini beradi. (Smith J. (2021) International Student Mobility and Higher Education. 139-bet). Erasmus+ Fulbright va boshqa xalqaro dasturlar orqali ishtirokchilar tajriba almashish, til va madaniyat ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. (Johnson L. (2020) Erasmus and Global Academic Exchange. 213-bet).

2.Sport va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish imkoniyatlari

O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan so'nggi yillarda yoshlar o'rtasida sportni ommalashtirish, zamonaviy sport majmualari qurish va musobaqalarni ko'paytirish orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shuningdek, maktab va oliy ta'lim muassasalarida sport to'garaklari ham ommaviy yugurish, marafon va spartakiadalar tashkil etilishi yoshlarning jismoniy faolligini oshirib, sog'lom avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Talabalar sport musobaqalari va klub faoliyati

2024-2025 o'quv yilida O'zbekiston bo'ylab “ Talabalar ligasi “ sport musobaqalari o'tkazilib, 288 537 nafar talabalar 9 ta sport turi bo'yicha (masalan, basketbol, stol tennisi, kurash) bellashdi, bu musobaqalar uch bosqichda bo'lib o'tdi va respublika finaliga minglab ishtirokchilar yetib bordi. (“Talabalar ligasi“ Kun. uz, 18.02. 2025).

2025-2026 o'quv yilidan boshlab Prezident qarori bilan universitetlarda kamida 3ta jamoaviy sport turlari bo'yicha sport klublari tashkil etilib, voleyboll, suv polosi kabi





sport turlari bo'yicha musobaqalar muntazam ravishda o'tkazilishi rejalashtirilmoqda. (Jamoaviy sport turlari musobaqalari. Ilmlar. uz, 04. 12.2024). 2026-yil yanvar oyida Niderlandiyada o'tkazilgan Tata Steel Chess 2026 turnirida O'zbekiston grossmeysterlari Nodirbek Abdusattarov 9 ochko bilan va Javohir Sindarov 8.5 ochko bilan yuqori natija ko'rsatib, mamlakat shaxmat maktabining kuchli ekanini yana bir bor isbotladi. Ikkalasi ham O'zbekiston shaxmatining kuchli vakillari bo'lib, jahon miqyosida yuqori darajadagi natijalarga erishmoqda. (Tata Steel Chess 2026 rasmiy natijalari va xalqaro sport yangiliklari).

3.Yoshlarni ish bilan ta'minlash va ijtimoiy faollikni oshirish

Yoshlarni ish bilan ta'minlanishi uchun hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish dasturi Alfatoun xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro AlfaYouth dasturi hisoblanadi. UNICEF bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va BMTTD bilan hamkorlikda dasturni O'zbekiston uchun moslashtirgan bo'lib, 2023-yildan boshlab Mehnat vazirligi huzuridagi “ Ishga marhamat ” monomarkazlarida “AlfaYouth ”ni sinovdan o'tkazish va bosqichma-bosqich o'quv dasturiga kiritish rejalashtirilmoqda.

Ijtimoiy va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Ijtimoiy ko'nikmalar 2017-2021-yillarda yoshlarga oid davlat siyosati, xususan Harakatlar strategiyasi hamda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida yoshlarning muloqot, liderlik va jamoada ishlash kabi ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratildi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-son Farmoni - Harakatlar strategiyasi to'g'risida. 12-15 betlar). Kasbiy ko'nikmalar 2019-yilda Yoshlar ishlari agentligi tashkil etilishi hamda keyingi yillarda kasb - hunar va IT yo'nalishlarini qo'llab - quvvatlash dasturlari joriy etilishi yoshlarning zamonaviy kasbiy malaka va raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. (O'zbekiston Respublikasi





JOURNAL OF SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

Prezidentining qarori, 2019-yil 30-iyun Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida.5-7 betlar). Bandlikni ta'minlash va amaliyot imkoniyatlari 2017-2021-yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida yoshlar bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish va ularni mehnat bozoriga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. 2022-2026 - yillarda esa Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi asosida yoshlarni doimiy ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va zamonaviy kasblarga yo'naltirish orqali bandlik darajasini oshirish ustuvor vazifa etib belgilandi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni - Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. 8-10betlar).

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz tomonidan yoshlarga yaratilayotgan nafaqat ularning kasbiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga, balki butun mamlakatning rivojlanishiga ham katta xissa qo'shmoqda. Ta'limdan tortib, bandlik, tadbirkorlik, IT va sport sohalarigacha kengaytirilgan dasturlar yoshlarni zamonaviy raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, amaliyot va startap loyihalari orqali yoshlar real ish tajribasini orttirib, jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatiga bo'lmoqda. Natijada, davlat siyosatining bu yo'nalishi yoshlarda innovatsion fikrlash, liderlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga hamda ularni kelajakdagi muvaffaqiyatli mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qilmoqda. 2025-yilda Prezidentimizning rejalari yoshlarni zamonaviy kasblarga yo'naltirish va startap hamda amaliyot imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari (2020 - 2024).





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosatiga oid farmon va qarorlari (2017-2024).

3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim muassasalarida grant va stipendiyalar ajratish tartibiga oid qarorlari (jumladan, 59-son qaror Lex. uz. rasmiy huquqiy portal).

4.Abdurahmanov S. (2020) Ilmiy tadqiqotlar va konferensiyalar metodikasi. 5.Karimov O. (2019) Akademik loyihalar va yosh tadqiqotchilar uchun qo'llanma. 6.Smith J. (2021) International Student Mobility and Higher Education. 139-bet. 7.Jhonson L. (2020) Erasmus and Global Academic Exchange. 213-bet.

8.“Talaba ligasi “ Kun. uz, 18.02. 2025. Jamoaviy sport turlari musobaqalari. Ilmlar. uz, 04.12.2024.

9.Tata Steel Chess 2026 rasmiy natijalari va xalqaro sport yangiliklari. 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni - Harakatlar strategiyasi to'g'risida. 12- 15 betlar.

11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni - Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. 8-10betlar.

